

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" QISSASIDA AYOL QIYOFASI

Jumayeva Kamola

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336960>

Annotatsiya. Mazkur maqola taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini tahlil qilish bilan bir qatorda, unda yoritilgan bir qator dolzarb mavzularni yangicha talqinda baholashga qaratilgan. Maqolada asosan Sharq ayollarining matonati, sadoqati, ona sifatidagi ko'rinishi nechog'lik mashaqqatli ekanligi tahlil etilgan. Ishdagi umumiy xulosalar asarning ma'naviy-axloqiy qimmatini yoritishga xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: sharq ayoli, personajlar o'rtasidagi konflikt, ijtimoiy hayot va jamiyat

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В РАССКАЗЕ ОТКИРА ГАШИМОВА "МИРОВЫЕ ДЕЛА"

Аннотация. Данная статья, наряду с анализом произведения известного писателя Откира Гашимова «Мировые дела», имеет целью оценить в новой интерпретации ряд актуальных тем, освещенных в нем. В статье в основном анализируются упорство, верность и материнство восточных женщин. Общие выводы работы послужили подчеркиванию духовно-нравственной ценности произведения.

Ключевые слова: восточная женщина, конфликт персонажей, социальная жизнь и общество.

THE IMAGE OF A WOMAN IN OTKIR HASHIMOV'S SHORT STORY "WORLD AFFAIRS"

Abstract. This article, along with the analysis of the well-known writer O'tkir Hashimov's work "World Affairs", aims to evaluate a number of current topics covered in it in a new interpretation. The article mainly analyzes the tenacity, loyalty, and motherhood of Eastern women. The general conclusions of the work served to highlight the spiritual and moral value of the work.

Key words: oriental woman, conflict between characters, social life and society

KIRISH

Tarixiy-falsafiy qonuniyat, zamonning o'zgarishi, atrof-muhit, jamiyat va insonning aqliy rivojiga qaramasdan, insonning o'zi har doim bir yo'ldan borishi haqida o'zgarmas tamoyilga asoslangan. Qanchalik, zamon o'zgarmasin, eng buyuk, porloq fazilatlar bor insonlar bilan bir vaqtning o'zida eng yoqimsiz xislatlarga boy insonlar ham yashab o'tishini taqozo etadi.

ASOSIY QISM

Bundan ancha yillar oldin yozilgan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi ushbu ta'kidning dalili sifatida keltirilishi mumkin. O'zining adabiy janriga ko'ra, qisqa hayotiy qissalarning jamlanmasi, ko'p hollarda insholar yig'indisiga qiyoslanishiga qaramasdan, ushbu "doston o'z ichiga nafaqat muallifning onasi haqidagi fikr-mulohazalari va ichki kechinmalari, balki zamonning, uning atrofidagi insonlarning ichki va tashqi ko'rinishlariga bag'ishlanadi.

Bilamizki, bu qissa avtobiografik, ya'ni yozuvchining o'z hayotidagi bo'lib o'tgan voqealar asosiga quriladi. Ammo, qissada yozuvchi faqatgina o'z onasining timsolini madh etib, uni ideallashtirgan degan noto'g'ri xulosaga kelmasligimiz kerak, chunki qissaning mavzu ko'lam va kitobxonga yetkazilishi kerak bo'lgan ma'no doirasi anchayin keng. Bu qissada yozuvchi o'z onasi misolida butun boshli Sharq ayolini gavdalantirib bergan. Bundan tashqari

yozuvchi qissadagi kichik-kichik hikoyalar orqali o'sha zamon kishisining yashash tarzi, ijtimoiy muhiti, Sobiq Ittifoq davridagi siyosiy-ijtimoiy qarashlarni ham ko'rsatib bergan.

Zamonning tartib-taomillari, ateistik targ'ibot jamiyatning barcha jabhalariga qaratilganiga qaramasdan, insoniylik, insof singari yuksak xislatlarni saqlab qolish va uni o'z farzandlarining tarbiyasida qo'llash aynan sharq ayolining fazilatlaridan biridir.

Misol tariqasida, qissaning "Ikki afsona" hikoyasida muallif onasining barvaqt turib, ko'cha supurib ishlaganini eslab o'tadi. Unda vaqt o'tgan sari akasining onasiga shu ishni qilmasligi haqidagi so'zlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Insonning halol mehnat qilib, peshona teri bilan hayot kechirishi dindand xabardorlik sifatida onaning har qanday halol mehnatning aybi yo'qligi haqidagi so'zlari bilan ta'riflanadi. Ushbu holatning alohida e'tiborga sazovor jihati shunda-ki, onaning halol luqma bilan farzandlarining qornini to'q, ustini but tutishi, o'zidagi halovatning mavjudligi, uning o'z mehnati bilan g'ururlanishi va insofidan dalolat beradi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta'riflagan: " „Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istar edim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi".²² Asar boshlanar ekan muallifning ushbu jumlasiga dastlab ko'zimiz tushadi va o'qimasdan be'tibor o'tib keta olmaymiz: "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz inson- onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ism o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga o'xshaydi. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi".²³

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki nimaiki ish qilmaylik ota-onani norizo qilgan odam hech qachon biron bir narsaga erisha olmaydi. Buni hayotda ham kitoblarda ham ko'p uchratamiz. Bu asarda ham ota-onani qadriga yetish haqida ko'pgina xulosalar chiqarsak bo'ladi.

REFERENCES

1. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari,-Toshkent,2018.
2. Hoshimov O'. Yarim asr daftari,- Toshkent, 2014.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari,-Toshkent,2008.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari,-Toshkent,2018.

²² Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z,-T:Yangi asr avlodi,2006

²³ Hoshimov O'.Dunyoning ishlari,-Toshkent,2018